

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Tursunova Parvina Mamurjonovna NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
3. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
4. Рахматова Гулнора Турсиновна ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
5. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
6. Ибаев Анвар Журабекович ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
7. Т.А.Эргашева СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
13. Aybibi ISKANDAROVA O‘ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	93
15. Воҳидов Абдувахоб САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

17. Zaynutdinova Durdona Asatovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
19. Ochilova Noila Farmonovna O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI (ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
24. N.M.Shamuradova INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
26. Башарова Лейла РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
27. Ivanova Alena Yadmagieвна TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
29. Asqar Abdullaev SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
31. Сабина Авазжоновна Махмудова ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200



Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva
Tarjimonlik fakulteti talabasi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston
sevinchkholmirzaeva@gmail.com

ITALYAN TILIDAGI KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING TARJIMADA MA'NO FARQLANISHI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.20814990>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola italyan tilidagi ko'p ma'noli so'zlar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda qanday farqlanishi va bu jarayon tarjimonga qanday mas'uliyat yuklashi haqida so'z yuritadi. Til tabiatida bir so'zning vaqt davomida bir nechta ma'no kasb etishi tabiiy jarayon sanaladi, biroq tarjimada, ya'ni ma'no bir tildan ikkinchi tilga almashtirilganda, bu hodisa ko'pincha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Chunki tarjimon tarjimada nafaqat so'zning asosiy ma'nosini, balki uning yashirin, nozik ma'no qatlamlarini ham sezishi, matnning umumiy ruhini anglay olishi zarur hisoblanadi. Maqolada polisemiyaning, ya'ni ko'p ma'nolilik hodisasining nazariy asoslari va tarjimonda bo'lishi lozim bo'lgan malaka, tajriba hamda matn muhiti (kontekst)ning o'rni batafsil yoritiladi. Turli misollar orqali birgina so'zning vaziyatga qarab qanday boshqa ohang va mazmun kasb etishi ko'rsatib beriladi. Ko'pincha italyan tilidagi bitta so'z o'zbek tilida bir nechta muqobil tarjimaga ega bo'lishi mumkin, shuning uchun tarjimon mazmuniy muhitga eng mos, tabiiy va izchil variantni tanlashi lozim bo'ladi. Tadqiqotlar shuni namoyon etadiki, sifatli tarjima faqat lug'atdagi ma'noni to'g'ri topish bilan cheklanmaydi. Tarjimon matnning ichki ritmini, madaniy bog'lanishlarni, muloqot uslubini va muallif niyatini ham his eta olishi kerak. Umuman olganda, ushbu ilmiy maqola italyan tilida polisemiyaning qanday ishlashini chuqurroq anglashga yordam berib, tarjimonlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: polisemiya; leksik ma'no; matn muhiti; semantik moslik; ma'no qatlamlari; ma'nodoshlik

Sevinch Sherzodovna Kholmirzayeva
Student of the Faculty of Translation Studies
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan
sevinchkholmirzaeva@gmail.com

SEMANTIC DIFFERENTIATION OF POLYSEMOUS WORDS IN ITALIAN TRANSLATION

ABSTRACT

This article explores the nuances of translating polysemous (multi-meaning) words from Italian into Uzbek and the significant responsibility this process places on the translator. In the evolution of any language, it is natural for a single word to acquire multiple meanings over time; however, when transferring these meanings from one language to another, this phenomenon often creates complex linguistic challenges. A translator must not only identify the primary definition of a word but also perceive its subtle, hidden layers of meaning and capture the overall essence of the text. The article provides a detailed analysis of the theoretical foundations of polysemy, the necessary skills and experience of a translator, and the critical role of context. Through various examples, it demonstrates how a single word can adopt different tones and implications depending on the situation. Often, a single Italian word may have several equivalent translations in Uzbek, requiring the translator to select the most natural, consistent, and contextually appropriate variant. Research indicates that high-quality translation is not limited to finding the correct dictionary definition; it also requires the translator to feel the internal rhythm of the text, cultural connections, communication style, and the author's intent. Ultimately, this scholarly article serves as a valuable theoretical and practical resource for understanding the mechanics of polysemy in Italian and its application in translation.

Keywords: polysemy; lexical meaning; context; semantic compatibility; layers of meaning; synonymy.

Севинч Шерзодовна Холмирзаева

Студентка факультета переводоведения
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
sevinchkholmirzaeva@gmail.com

**СЕМАНТИЧЕСКОЕ РАЗГРАНИЧЕНИЕ МНОГОЗНАЧНЫХ СЛОВ В
ИТАЛЬЯНСКОМ ПЕРЕВОДЕ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются особенности перевода многозначных слов с итальянского языка на узбекский и ответственность, которую этот процесс возлагает на переводчика. В природе языка естественным процессом считается приобретение словом нескольких значений с течением времени, однако при переводе, то есть при переносе значения из одного языка в другой, это явление часто создает определенные трудности. Переводчик должен не только определить основное значение слова, но и прочувствовать его скрытые, тонкие смысловые слои, а также уловить общий дух текста. В статье подробно освещаются теоретические основы полисемии (многозначности), роль контекста, а также квалификация и опыт, необходимые переводчику. На различных примерах демонстрируется, как одно и то же слово может приобретать разные оттенки и содержание в зависимости от ситуации. Зачастую одно итальянское слово может иметь несколько альтернативных вариантов перевода на узбекский язык, поэтому переводчик должен выбрать наиболее подходящий, естественный и последовательный вариант для конкретной смысловой среды. Исследования показывают, что качественный перевод не ограничивается лишь поиском правильного словарного значения. Переводчик должен чувствовать внутренний ритм текста, культурные связи, стиль общения и намерение автора. В целом, данная научная статья помогает глубже понять механизмы полисемии в итальянском языке и служит теоретическим и практическим ресурсом для переводчиков.

Ключевые слова: полисемия; лексическое значение; контекст; семантическое соответствие; смысловые слои; синонимия.

Kirish. Til sohasida, xususan tarjimonlikda ham ko'p uchraydigan hodisalardan biri bu polisemiya, ya'ni bitta so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lish jarayonidir. Umuman olganda, ushbu hodisa tilning tabiiy rivoji davomida yuzaga keladi va barcha tillarga xos universal xususiyat

hisoblanadi. Tadqiqotchilar polisemiya tilning semantik boyligini oshiradigan, shu bilan birga uni murakkablashtiradigan hodisa sifatida baholaydilar. Buni chuqurroq tushuntiradigan bo'lsak, qaysi millatda fan, texnika, madaniyat va san'at yuksak rivoj topgan bo'lsa, o'sha xalq atrofidagi voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'proq anglaydi, ularni bir-biriga ko'proq qiyoslay oladi va bu jarayon tilning ma'no boyligining o'sishiga sabab bo'ladi. So'z ma'nolarining o'zgarishi va kengayishi doimiy ravishda sodir bo'lib turadi, bu esa polisemanik so'zlarning yanada rivojlanishiga asos yaratadi. Ya'ni inson o'zini o'rab turgan borliqni umumlashtirib, tahlil qilib anglagan sari tilda polisemiyaning mavjudligi va taraqqiyoti ham tabiiy ravishda davom etadi [Mirtojiev 1984]. Polisemiya tilning tabiiy taraqqiyotiga asoslangan, semantik tizimni boyituvchi va uni murakkablashtiruvchi lingvistik hodisa sifatida italyan tilida ham yetakchi o'rin tutadi. Misol uchun italyan lug'atining asosiy qismini mana shu tipdagi so'zlar tashkil etadi [Casadei 2014]. Til o'rganuvchi ham, tarjimon ham bu jarayonning mohiyatini chuqur anglab, turli kontekstlarda ma'no farqlanishini to'g'ri talqin qilishi lozim. Shu bilan birga, polisemiyaning nafaqat semantik tizimdagi markaziy o'rni, balki tilning umumiy ishlash mexanizmiga ta'siri ham juda katta ekani tilshunoslikda keng e'tirof etilgan. Leksik semantika bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlar polisemiya og'zaki tilning asosiy tamoyillaridan biri ekanini ko'rsatadi. Ayrim olimlar uni leksik noaniqlik manbai sifatida ko'rsalar, boshqalar polisemiyaning tabiiy tillarning eng muhim semiotik xususiyatlaridan biri bo'lgan semantik noaniqlikning mahsuli sifatida baholaydilar. Chet til sifatida italyan tilini o'rganuvchilar polisemiya sababli ma'noni tanlashda ko'pincha qiyinchiliklarga duch keladilar. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar polisemiya o'qituvchi tomonidan aniq izohlangan bo'lsa, bu hodisa o'quvchilar tomonidan oson tushuniladi. Chunki polisemiya inson tafakkurining umumiy kognitiv asoslariga tayanadi [Casadei 2014:36]. Zamonaviy tilshunoslikda polisemiya masalasi, ayniqsa tarjima jarayonida, dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, hozirgi global madaniy va lingvistik aloqalar kuchaygan sharoitda bir tildagi ko'p ma'noli birliklarning boshqa tilga to'g'ri va izchil tarzda ko'chirilishi katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Italyan tilidagi polisemanik birliklar ustida ko'plab nazariy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning o'zbek tiliga tarjimasidagi semantik farqlanish, kontekstga qarab ma'no tanlash mexanizmlari, ma'no tarmoqlanishining o'zbek tilidagi ifodasi hali yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Hozirgi kunda xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo muloqot, akademik almashinuv va tarjima amaliyoti tobora kengayib borayotgan bir paytda polisemiya bilan bog'liq semantik muammolarni o'rganish yanada zarurdir.

Asosiy qism. Polisemiya tilshunoslikdagi asosiy semantik hodisalardan bo'lib, u bitta so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi, ya'ni ko'p ma'nolilik hodisasini anglatadi. Bu jarayon natijasida bir leksema turli kontekstlarda turlicha, ammo o'zaro ma'naviy bog'liq ma'nolarda qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "bosh" so'zi tana a'zosi ma'nosida ham, rahbarlikni bildiruvchi ma'noda ham, boshlanish mazmunida ham qo'llanadi. Xuddi shuningdek, italyan tilidagi porta so'zi "eshik" ma'nosini bildirishi bilan birga, fe'l shakli sifatida "u olib boradi" yoki buyruq shaklida "olib kel!" ma'nolarini ifodalaydi. "Polisemiya" atamasining lug'aviy ma'nosi qadimgi yunon tiliga borib taqaladi. Yunoncha poly- "ko'p", sema- "belgi, ma'no" degan ma'nolarni anglatadi. Shu bois atama mazmuni ham aynan "ko'p ma'no" tushunchasini ifodalaydi. Mazkur hodisa barcha tillarga xos bo'lib, semantik tizimda polisemiya so'zlarning ma'no tarmoqlanishiga, til boyligining ortishiga, shu bilan birga nutqning ifodaviy imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. Polisemanik birliklarning barcha ma'nolari nutq jarayonida, matnning semantik oqimi ichida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan polisemiya tilning semantik tizimida ham, uning doimiy taraqqiyotida ham, matn yaratish jarayonida ham juda muhim o'rin tutadi. Amaliy til materiallari shuni ko'rsatadiki, umumiste'moldagi so'zlarning katta qismi ko'p ma'nolidir va polisemiya deyarli barcha so'z turkumlarida uchrashi bilan ajralib turadi. Bu esa mazkur hodisani nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab qiladi. Ko'p ma'nolilik xususida juda ham ko'plab olimlar o'zlarining izlanishlari orqali fikrlarini bayon etishgan. Ullmann polisemiyaning "bir xil so'zning ikki yoki undan ortiq farqli ma'nolarda qo'llanishi" deb izohlaydi [Ullmann 1966]. Yana bir mashhur tilshunos Leech ham shunga yaqin fikrni ilgari surib, polisemiyaning "bitta so'zning ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lishi" sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, u polisemiyaning "bitta leksik birlik uchun bir nechta semantik tavsiflarning mavjudligi" deb ham tushuntiradi [Leech G 1974]. Steiner esa polisemiyaning

“bir xil so‘zning turli narsalarni anglatish qobiliyati” deb ta’riflaydi [Steiner G 1975]. Lyons ko‘p ma’nolilik hodisasini “bitta leksemaning bir nechta farqli ma’nolarga ega bo‘lishi” sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, polisemiya alohida bir leksemaning xususiyati bo‘lib, bitta leksema bir nechta aniq farqlanadigan ma’nolarga ega bo‘ladi va bu ma’nolar bir vaqtning o‘zida, o‘zaro bog‘liq bo‘lishi zarur [Lyons J 1977]. Ushbu ikkala hodisani bir-biriga qiyoslab tahlil qiladigan bo‘lsak, Polisemiya bitta so‘zning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta ma’nolarga ega bo‘lishini anglatadi omonimiya esa shaklan bir xil, ammo ma’no jihatdan mutlaqo mustaqil bo‘lgan so‘zlarning mavjudligini bildiradi. Ushbu farqni aniqroq anglash uchun ikki tilda ya’ni italyan va o‘zbek tilidagi adabiy asarlardan olingan misollar muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun A.Dantening “Ilohiy kommediya” asarida quyidagi jumlar uchraydi:

Nel ciel che più de la sua **luce** prende
fu’ io, e vidi cose che ridire
né sa né può chi di là sù discende;

Surge ai mortali per diverse foci la **lucerna** del mondo;

Beatrice tutta ne l’etterne rote fissa con li occhi stava;
e io in lei le **luci** fissi, di là sù rimote

S’i’ era sol di me quel che creasti novellamente,
amor che ‘l ciel governi,
tu ‘l sai, che col tuo **lume** mi levasti.

“Divina Commedia, Paradiso” birinchi qismdan keltirilgan yuqoridagi parchalarda polisemiya hodisasi yaqqol namoyon bo‘lgan. Xususan, luce, lucerna, luci va lume leksemalari bitta semantik maydon doirasida turli mazmunlarda qo‘llanib, ma’no kengayishining turli bosqichlarini aks ettiradi. Masalan, “Nel ciel che più de la sua luce prende” misrasida luce so‘zi bevosita jismoniy yorug‘likni emas, balki ilohiy nur va yozuvchi uchun oliy haqiqatni ifodalaydi. Bu yerda ma’no metaforik kengayish orqali shakllangan bo‘lib, so‘zning asosiy ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir. Keyingi jumlada “la lucerna del mondo” birikmasida lucerna so‘zi lug‘aviy jihatdan “chiroq” ma’nosini bildirsa-da, matn kontekstida u butun borliqni yorituvchi quyoshni anglatib kelmoqda. Demak, mazkur leksema mavjud predmet nomidan ramziy va falsafiy ma’noga ko‘chib, polisemik xususiyat kasb etib kelgan. Shuningdek, “e io in lei le luci fissi” misrasida luci shakli grammatik jihatdan luce leksemasining ko‘plik shakli bo‘lib tuyulsa-da, semantik jihatdan “yorug‘liklar” emas, balki “ko‘zlar, qarash” ma’nosini anglatadi. Bu holatda polisemiya metonimik asosda yuzaga kelib, ma’no idrok va sezgi bilan bog‘liq tarzda kengayishini ko‘rishimiz mumkin. Oxirgi misolda uchraydigan “col tuo lume mi levasti” jumlasida esa lume so‘zi oddiy yorug‘likni emas, balki ilohiy hidoyat, idrok va ma’naviy yuksalish ramzini ifodalab kelgan. Bu yerda ham so‘zning asosiy ma’nosi bilan yangi ma’nosi o‘rtasida kuchli semantik bog‘liqlik mavjud bo‘lib, mazkur holat polisemiyaga namuna bo‘la oladi. O‘zbek adabiyotiga yuzlanadigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlar majmuasidan “Layli va Majnun” dostonida quyidagi baytlarni tahlil qilishimiz mumkin:

Ey husnni dilpazir qilg‘on,
El **ko‘nglin** anga asir qilg‘on.
Ko‘ngliniki, shar‘ bo‘lub mupazzah,
Xayroti bila ulus muraffah.
Ko‘rgach ham oni nigori zebo,
O‘z **ko‘nglini** topti noshikebo.
Mahvash ul ikov degandek etti,
Ko‘nglin qo‘yub anda evga ketti.
Maktab aro zoli mehrpesha,
Ko‘nglini so‘rub aning hamesha,

Birinchi misrada **ko'ngil** so'zi insonning ichki ruhiy olami va muhabbat manbai ma'nosida qo'llanilgan. Husnning "ko'ngilni asir qilishi" — bu inson qalbining go'zallikka bo'ysunishi, ichki dunyoning ishqqa bog'lanishini anglatadi. Keyingi berilgan misrada esa **ko'ngil** so'zi axloqiy, ma'naviy poklik va e'tiqod manbai sifatida ishlatilgan. Ko'ngilning "shar' bo'lishi" uning pokligi va to'g'riligini bildiradi. Bu yerda **ko'ngil** insonning ichki axloqiy mezonlarini ifodalovchi tushunchaga aylanadi. Uchinchi misrada **ko'ngil** insonning ruhiy holati va hissiy kechinmalarini anglatadi. Go'zallikni ko'rish natijasida ko'ngilning beqaror bo'lishi, ichki hissiy muvozanatning buzilishi sifatida talqin etiladi, ya'ni ko'ngil his-tuyg'ularning markazi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu misradan keyin berilgan baytda esa **ko'ngil** so'zi ichki moyillik, tanlov va qaror ma'nosini ifodalaydi. "Ko'ngilni qo'yib ketish" — insonning ichki e'tibori va muhabbati bir joyda qolishini anglatib kelgan deyishimiz mumkin. So'nggi jumlada esa biz tahlil qilayotgan so'z mehr, e'tibor va hissiy munosabat markazi sifatida qo'llanadi. "Ko'ngilni so'rash" iborasi insonning ichki holatiga e'tibor berish, mehr ko'rsatish ma'nosini anglatib kelgan. Polisemiya hodisasi turli yo'llar bilan shakllanadi va bir necha asosiy turlarga ajratiladi. Ushbu turlar so'z ma'nosining qanday kengaygani va qaysi omillar ta'sirida yuzaga kelganiga qarab farqlanadi. Italian tilidagi polisemanik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimon bir qator yechim topishi zarur bo'lgan masalalarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar, avvalo, ikki tilning leksik-semantik tizimi o'rtasidagi farqlar, madaniy tafakkur xilma-xilligi hamda so'zlarning badiiy matndagi funksional yuklamasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'pincha italyan tilidagi bitta so'z o'zbek tilida bir nechta mustaqil birliklar orqali ifodalanadi yoki aksincha, o'zbek tilida yagona so'z bilan beriladigan tushuncha italyan tilida turli mazmunga qarab farqlanadi. Polisemantik so'zlar tarjima jarayonida, ayniqsa ular aniq kontekstdan uzilgan holda uchraganida, jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday vaziyatda so'zning qaysi ma'nosi nazarda tutilganini aniqlash uchun yetarli lingvistik tayanch bo'lmaydi va bu tarjimada noaniqlikka olib keladi. Shu sababli tarjimon ma'no aniqligiga erishish uchun faqat matnning emas, balki vaziyat mazmuniga ham tayanishiga majbur bo'ladi. Ushbu fikrga yorqin misol tariqasida "Piccolo principe", ya'ni "Kichkina shahzoda" asaridan kichik tarjimaviy namuna keltirib o'tamiz:

"Quando un mistero è così sovraccarico, non si osa disubbidire. Per assurdo che mi sembrate, a mille migliaia da ogni abitazione umana, e in pericolo di morte, tirai fuori dalla tasca un foglietto di carta e la penna stilografica."

"Sir shu qadar og'ir va bosimli ediki, unga bo'ysunmaslikning iloji yo'q edi. Qanchalik mantiqsiz tuyulmasin, odamlar yashaydigan joylardan minglab chaqirim uzoqda, o'lim xavfi ostida bo'lsam-da, cho'ntagimdan qog'oz parchasini va ruchkani chiqarib oldim."

- Berilgan parchada bir nechta leksik birliklar polisemiya hodisasini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, mistero so'zi lug'aviy jihatdan "sir" ma'nosini ifodalasa-da, mazkur kontekstda u faqatgina yashirin yoki noma'lum hodisani emas, balki qahramon duch kelgan tushunarsiz va izohlanmagan vaziyatni anglatadi.
- Shuningdek, sovraccarico birligi dastlab "ortiqcha yuklangan" degan ma'noga ega bo'lib, asosan jismoniy holatni ifodalash uchun qo'llanadi. Ammo mazkur matnda bu so'z metaforik ma'noda ishlatilgan bo'lib, vaziyatning murakkabligi, og'irligi va qahramon ruhiyatiga tushayotgan bosimni ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur birliklarning barchasi kontekst ta'sirida o'z lug'aviy ma'nosidan tashqariga chiqib, qo'shimcha semantik qatlamlarni hosil qiladi. Bu esa polisemantik birliklarni tarjima qilishda faqat lug'aviy ekvivalent bilan cheklanib bo'lmasligini, balki matnning umumiy mazmuni va ruhiy holatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Aynan shu jihat ko'p ma'noli so'zlarni tarjima qilish jarayonida avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari, ayniqsa mashina tarjimasi (machine translation) uchun muhim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Chunki onlayn tarjima vositalari orqali ko'pincha so'zning eng ko'p ishlatiladigan yoki statistik jihatdan ustun bo'lgan ma'nosi tanlanadi va har doim ham kontekst chuqur tahlil qilinmaydi. Natijada polisemantik so'zlar ishtirok etgan matnlarning tarjimasi yuzaki bo'lib, ayrim hollarda asl mazmundan chetga chiqish holatlari kuzatiladi. Inson tarjimon esa kontekstni hisobga olgan holda so'zning metaforik ma'nosini tanlab, matnning tabiiyligi va mazmuniy aniqligini saqlab qoladi. Demak, ko'p ma'noli so'zlarning turli ma'nolari bir-biri bilan uzviy bog'langan yoki kamida ma'lum darajada o'xshashlikka ega bo'ladi.

Chunki polisemiya ko‘pincha so‘zning asosiy, yetakchi ma‘nosining semantik jihatdan kengayishi natijasida shakllanadi. Yangi hosil bo‘lgan ma‘no dastlabki ma‘nodan farq qilgan bo‘lsa-da, ular o‘rtasida umumiy belgi yoki mantiqiy munosabat saqlanib qoladi. Masalan, **bet** so‘zi insonning yuzi, kitob sahifasi hamda ko‘chaning bir tomoni kabi turli ma‘nolarda qo‘llanilib, polisemantik birlik sifatida namoyon bo‘ladi [Masharipova 2020].

Xulosa. Mazkur maqolada italyan tilidagi ko‘p ma‘noli so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan ma‘no farqlanishlari va ularning tarjimonga yuklaydigan mas‘uliyati tahlil qilindi. Tadqiqot davomida polisemiya tilning tabiiy va ajralmas xususiyati ekani, u so‘zlarning semantik boyligini oshirishi bilan birga tarjimada murakkabliklar tug‘dirishi aniqlandi. Bir so‘zning bir nechta o‘zaro bog‘liq ma‘noga ega bo‘lishi tarjimondan faqat lug‘at bilimini emas, balki kontekstni chuqur anglash, matn turini hisobga olish va madaniy omillarni sezish qobiliyatini ham talab qiladi. Maqolada metaforik va metonimik polisemiya turlari badiiy asarlardan olingan misollar orqali yoritildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p ma‘noli so‘zlar ko‘pincha matnning umumiy ruhiga xizmat qiladi va ularning yuzaki tarjimasi asarning mazmuniy chuqurligini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, badiiy adabiyot va kino matnlarida polisemantik birliklar ramziy, emotsional va madaniy yukni o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, mashina tarjimasi (machine translation; Google Translate) bilan bog‘liq muammolar ham ko‘rib chiqildi. Amaliy misollar asosida aniqlanganki, avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari ko‘pincha so‘zning eng keng tarqalgan ma‘nosini tanlaydi va kontekstni yetarli darajada hisobga olmaydi. Bu esa polisemantik birliklar ishtirok etgan matnlarda noaniq yoki noto‘g‘ri tarjimalarga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan inson tarjimonining roli hanuz muhim bo‘lib qolmoqda, chunki u so‘zning nafaqat lug‘aviy, balki kontekstual, madaniy va emotsional ma‘nolarini ham to‘g‘ri talqin qila oladi. Xulosa qilib aytganda, italyan tilidagi polisemantik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni murakkab, ammo ilmiy va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Casadei F. La polisemia nel vocabolario di base dell’italiano // *Lingue e Linguaggi*. – 2014. – № 12. – P. 35–52.
2. Collodi C. *Le avventure di Pinocchio*. – Milano: Giacomino Feltrinelli Editore, 2021.
3. Dante Alighieri. *La Divina Commedia. Paradiso*. – Project Gutenberg, 1997. – URL: <https://www.gutenberg.org/ebooks/1011>
4. Harold F. *Pragmatic inferencing*. – 2000. – URL: <http://ccat.sasuppen.edu/~haroldfs>
5. Leech G. *Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1974.
6. Masharipova N. The functional features of polysemy in English and Uzbek languages // *International Journal of Innovative Technologies in Social Science*. – 2020. – № 2(23). – P. 1–6.
7. Meenal T.S., Govindarajan P. The challenges of using machine translation while translating polysemous words // *Studies in Media and Communication*. – 2023. – Vol. 11, No. 2. – P. 1–5.
8. Mirtojyev M. *O‘zbek tilida polisemiya*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1984. – 135 b.
9. Navoiy A. *Layli va Majnun // Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik*. – Toshkent: Fan, 1992. – URL: <https://n.ziyouz.com>
10. Saint-Exupéry A. de. *Il Piccolo Principe / trad. di N. Bompiani Bregoli*. – 1943.
11. To‘xtanazarov M. Polisemiya tushunchasi va uning tilshunoslikdagi vujudga kelish sabablari // *Obrazovanie, nauka i innovatsionnye idei v mire*. – 2023. – ISSN 2181-3187. – URL: <https://scientific-jl.com>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000